

OLMA SHARBATLARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TOVAR NOMENKLATURASIDA SINFLANISHI

Yigitaliyeva Navbahor Orifjon qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoatsalomatligi texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17533685>

Annotatsiya: Ma'lumki bugungi kunda tovarlarini ko'paytirish ularning sifatini yaxshilash davlat andozalarga muvofiqlashtirish hozirda eng dolzarb masalalardan biridir. Tovarlarni sifatini tavsiflovchi kod raqamlari bo'lib, ular xuquqiy xarakatni ta'minlovchi xujjatlarni rasmiylashtirishga imkon beradi. Tovarlarning tarkibi, tuzulishi, xossalari ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan kodlarda o'z aksini topgan. Maqsadimiz: meva sharbatlarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganishning davlat andozalaridagi xolatini taxlil etgan xolda ularning Tashqi Iqtisodiy faoliyat Tovar Nomenklaturasida sinflanishini o'rganishdan va ularni sifatini tadqiq etish usullarini tizimini yaratishdan iborat. Tovar sifatini ifodalovchi kod raqamlarini ishlab chiqish, sinflashda tarkib bilan bog'liq muammolarni xal etish va iqtisodiy samaradorlikga erishishga olib keladi.

Kalit so'zlar: TIFTN, kod, olma, kimyoviy tarkib.

O'zbekiston Respublikasi xududi, iqlimi, tuproq, strukturasi, geografik shart sharoitiga ko'ra sersuv unumdor tuproqlardan tashkil topgan bo'lib jahonda mavjut istemol uchun yaroqli mevalarning 75-80% makon topgan. Meva daraxtlari mavjut sharoitga moslashgan bo'lib, ularning pishib yetilishi navlarga bog'liq xolda bahordan to kech kuzgacha sodir bo'ladi. Xar bir meva kimyoviy tarkibi, to'yimliliigi, shifobaxshligi va boshqa xususiyatlari farqlanib foydalanib kelinmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari mevalarni quritish va saqlash, yil davomida istemol uchun yetkazib berish borasida kotta tajribaga ega. So'ngi 50-60 yillar davomida quritilgan mevalar o'rniga ularning sharbatlaridan foydalanish urf bo'ldi. Sanoat miqyosida xam ko'plab meva sharbatlari qadoqlana boshlandi ularni sifati va tarkibi eksport qilishning va bunga talabning ko'payishiga olib keladi.

O'zbekistonda yetishtiriladigan mevalari ichida olma alohida ahamiyatga ega bo'lib ularning ko'plab navlari o'sadi. Ko'proq xaridorgir olmalar yetishtiriladi. Albatta bunda bozor va sanoat talablari xisobga olinadi. Shu bilan birga ularning tashqi ko'rinishi, ta'mi, xorijiy xaridorlarni jalp etib kelmoqda.

Olma va olma sharbatlari uchun Uyg'unlashgan tizimda alohida kod raqamlari belgilangan. Mevalar 8-guruhda meva sharbatlari esa 20-guruhda jamlangan. Meva sharbatlarining sifat ko'rsatkichlarini ko'rib chiqishdan oldin olmaning Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovar Nomenklaturasida sinflanishiga asos qilib olingan ko'rsatkichlarni taxlil qilamiz. Chunki meva sharbatlarining sifati, uning kimyoviy tarkibi, uning navi va iqlimiga, sharoitiga bevosita bog'liq.

Olma mevalari Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovar Nomenklaturasining 8-guruhining 0808 tovar o'rni (pozitsiya) da quyidagi kod raqamlari ajratilgan.

0808- olmalar, noklar va behilar

080810-- olmalar

080810200 ---Golden Delimec navi

080810500--- Grant Cmit navi

080810900---boshqalar

Olma mevalariga berilgan bu kod raqamlari O'zbekiston iqtisodiy manfaatlarini to'la ifodalay olmasligi ko'rinib turibdi. O'zbekistonda may oyining oxiri iyun oylarining boshlaridanoq olmalar yetila boshlaydi. Kod raqamlarining xususiyatlari shimoliy hududlarda joylashgan mamlakatlar sharoitiga mos keladi. Agar O'zbekistonda yetishtirilayotgan olma mevalari eksport qilinadigan bo'lsa faqat 080810900 ---"boshqalar" kod raqamlaridan foydalanilinishimizga to'g'ri keladi Bu kod raqami mavxumlikga ega bo'lib, olmaning navi, sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq savollarga javob bermaydi. Xuddi shuxolatni quritilgan mevalarni sinflashda ham ko'rishimiz mumkin .

0813 Quritilgan mevalar

0801-0806 tovar pozitsiyasidan tashqari; ushbu guruhga kiritilgan yong'oqlar yoki quritilgan mevalar

081310000 -o'riklar

081320000 -olxo'rilar

081330000 -olmalar

081340 -boshqa mevalardir

Mevalarning tarkibi ularning sifati bilan bog'liq masalalar quruq mevalarning sinflanishida ham etibordan chetda qolgan.

Bobda olmalarning kimyoviy tarkibi , uning yetilish davri bilan bevosita bog'liq ekanligi xaqida ma'lumot berilgan. Bu tarkib quritilgan mevalar xolida xam saqlanib qoladi. Shu bilan birga meva sharbatlariga ham o'tadi.

Mulohazalarimizni olma sharbatlarining Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovar Nomenklaturasidagi kod raqamlarining sinflanishi bilan davom ettiramiz.

Olma sharbatlari Tovar pozitsiyasining 200971 subpozitsiyasida sinflanadi. U quyidagicha ko'rinishga ega.

-olma sharbatlari

200971 --Briks soni 20 dan kichik

200971100 ---100 kg massa uchun narxi 18 yevrodan ortiq emas, shakar qo'shilgan.

2009711001 ----bolalar istemoli uchun 0.35 l xajmdan kotta bo'lmagan xolda qadoqlangan

200971009 ----boshqalar

2009719100 ----shakar qo'shilgan

2009719900 ----shakar qo'shilmagan [3].

Demak meva sharbatlarini sinflashda Briks ko'rsatkichi, qadoqlash xajmi va shaker qo'shilganlik yoki qo'shilmaganlik ko'rsatkichlari xisobga olingan. Kimyoviy tarkibi, qaysi mavsumda pishib yetilgan olmaning navi kabi masalalarga etibor berilmagan.

Albatta, meva sharbatlarining istemolga yaroqlik yani sifat ko'rsatkichlari Davlat andozalari talablariga ko'ra sertifikatlash markazlari sanitariya epidimologiya markazlari va bojkhona tashkilotlari tomonidan nazorat qilinadi. Olma sharbatlarini sertifikatlash jarayonida

....

Ko'rsatkichlar tekshiriladi. (Analiz usullari III-bobda keltirilgan) Lekin bizning nazarimizda muhim ko'rsatkichlardan biri olmaning shifobahshligini ifoda etadigan tarkib o'rganimaydi. Davlat andozalariga mikroelementlarni o'rganish usullari kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovar Nomenklaturasida olma

mevasining pishib yetilish mavsumlarini ifodalovchi aniq kod raqamlari 0808 tovar guruhiga kiritilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar tovarlarni sertifikatlash markazlari va davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Tovarlarni sertifikatlash markazlarida maxsulotlar quyidagi ko'rsatkichlari boyicha nazorat ishlari o'tkaziladi.

1-Orgonoleptik ko'rsatkichlar.

2-fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar.

3-xafsizlik ko'rsatkichlari.

Meva sharbatlarini ko'rinishi, tami, xidi, nordonlik darajasi va briks ko'rsatkichlari tekshiriladi va GOST talablari bilan solishtiradi[30-32].

GOST talablari ikki yo'nalishda belgilab qo'yilgan;

1.Sinovga oid talablar.

1.Maxsulotga oid talablar.

Sinovlarni o'tkazish uchun xar bir ishlatiladigan asbob uskunalar, jixozlar, idishlarga, konsentratlarga, ishlatiladigan reaktivlarga va labolatoriya xonalariga talablar belgilab qo'yilgan.

Maxsulotlarni sertifikatlash Vazirlar maxkamasining 2011-yil aprel oyidagi 122-qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Bundan tashqari Vazirlar maxkamasining 2005-yildagi 196, 2007-yildagi 104 va 118 Maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirishga doir chora tadbirlar to'g'risidagi qarorlariga xam amal qiladi. 2004-yida qabul qilingan "Maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom" ga muvofiq tovarlarni gigenik sertifikatlash tartibi ham ishlab chiqilgan. O'zbekistonda sertifikatlashning milliy tizimi davlat miqyosida amal qiladi[8].

Maxsulotlar tarkibi tekshirilib bo'lingach standartlarga javob bersa, maxsulotga sertifikat beriladi. Maxsulot uchun ixtiyoriy va majburiy ravishda sertifikat olinadi. Chetdan olib kelinayotgan va olib chiqib ketilayotgan maxsulot majburiy ravishda sertifikatlanadi. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni nazorat qiluvchi tashkilotlardan biri davlat sanitariya nazorati organi hisoblanadi. Sharbatlarni tarkibidagi og'ir metallar miqdori va patulin bo'yicha analiz ishlari quyidagi tartibdagi ishlar o'tkaziladi

1. Tekshirilayotgan meva sharbatidan 25 ml olibdastlab tashqi ko'rinishi, xidi tekshiriladi. Quyidagi jadvalga mos bo'lishi zarur.

2. Meva sharbatini elektr plitada to suv bug'lari yo'qolguncha qizdiriladi.

3. Mufel pechida 150-450°C gacha qizdirib kukun xoliga keltiriladi.

4. Olingan namuna sovutiladi, song HNO_3 1 ml 1:1 nisbatdagi suvdagi eritmasidan qo'shiladi.

5. To'la erib bo'lgach elektrplitada parlaydi va yana mufel pechida 250°C da 1 soat davomida qizdiladi.

6. Tigelga 1 ml HCl va 1ml H_2O_2 qo'shib yana parlatadi va olingan natijani polyagraf asbobiga qo'yib tekshiriladi. Berilgan standartlarga solishtirilib GOST talablariga mos yoki mos emasligi aniqlanadi.

1-jadval

1 kg quruq massadagi og'ir metallning ruxsat etilgan miqdori

Metall nomi	Miqdori (mg) da
qo'rg'oshin	0,4
mishyak	0,2
simob	0,03
kadmiy	0,02
Qalay	0,2
Xrom	0,5

Mevalar tarkibidagi mineral elementlarning o'zaro nisbati odam organizmi uchun optimal bo'lib, ular oson o'zlashtiriladigan shaklda uchraydi. Bu minerallar ishqoriy harakterda bo'lganligi uchun qondagi ishqor-kislota muvozanatining saqlanib turishida katta ahamiyatga ega. Mevalar tarkibidagi mineral moddalar o'rta hisobda ho'l meaning 0,3 – 0,95% ini tashkil etadi.

2-jadval

Mevalar tarkibidagi mineral moddalar miqdori

Mevalar	Kul miqdori	Kul miqdoriga nisbatan %					
		K ₂ O	O ₂	CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	P ₂ O ₅
Olma	0,33	51,6	3,9	4,2	3,7	1,2	10,4
Nok	0,30	52,9	4,2	4,7	4,3	1,0	11,9
O'rik	0,61	55,4	2,3	3,0	2,6	0,6	9,2
Shaftoli	0,55	53,6	4,1	2,8	3,1	0,8	13,7
Gilos	0,44	47,2	3,0	5,5	3,8	0,6	10,3
Olxo'ri	0,60	55,1	3,4	3,8	2,9	0,6	8,1

3-jadval

Sharbatlarning orgonoleptik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich nomi	Rangli	Rangsiz
Tashqi kop'rinishi	quyuq, tiniq eritma bunda ozroq oqsil va pektindan iborat cho'kma xosil bo'lishi mumkin. Uzun sharbatida esa suvda tez eruvchi kristallar bo'lishi mumkin.	quyuq tiniq bo'lmagan, xira suyuqlik, idish tubida oqsil va pektindan iborat cho'kma xosil qiladi.
Ta'mi va xidi	tabiiy sharbat bo'lgani uchun begona xid va ta'm bo'lmaydi begona. Och rangli sharbatlar uchun to'q sariqdan jigarranggacha va to'q rangli sharbatlar uchun och qizildan to'q qizilgacha bo'lgan ranglar xos	begona ta'm va xidlar taqiqlanadi rangioch sariqdan qizilgacha.
Suvda erishi	to'la 2 soat tindirilgach xech qanday quyqaa qolmaydi	to'la 10 minut aralashtirilgandan so'ng quyqaa kuzatilmaydi

4-jadval
GOST 18192-72

Maxsulot nomi	Kod
Och rangli olcha sharbati	91 6347 9010
Och rangli olma sharbati	91 6347 9030
To'q rangli olma sharbati	91 6347 9050
Och rangli uzum sharbati	91 6347 9060
Och rangli qoraqat sharbati	91 6347 9080
To'q rangli anor sharbati	91 6347 9290
Och rangli nok sharbati	91 6347 9310
Och rangli g'aynoli sharbati	91 6347 9330
To'q rangli g'aynoli sharbati	91 6347 9370
Och rangli gilos sharbati	91 6347 9390
To'q rangli gilos sharbati	91 6347 9410

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Узбекистана. Тошкент, 2012
2. П.Колесников. Яблоня и груша. Москва, Урожай, 1985, 248с.
3. Соки плодовые и ягодные концентрированные. ГОСТ 18192-72
4. Сок яблочный концентрированный и напитки, содержащие яблочный сок. ГОСТ 51440-99